



UDK: 37.015.3:37(091)

*Nafisa XUJAYAROVA,*  
*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti (PhD)*  
*E-mail: xujayarova@inbox.ru*

*Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, I.Tojiyeva taqrizi asosida*

## INKLYUZIV TA'LIM SHAKLLANISHINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Maqolada inklyuziv ta'lim shakllanishining tarixiy-nazariy asoslari, inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy qarashlar, tadqiqotchilar tomonidan ushbu konsepsiyani talqin qilishda bir necha asosiy nazariy yondashuvlar, ilmiy va nazariy asoslari hamda inklyuziv ta'limning bir qancha muammolari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, segregatsiya, integratsiya, inklyuziya, tarixiy bosqichlar, normativ huquqiy hujjatlar, konsepsiya.

## ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье изложены историко-теоретические основы формирования инклюзивного образования, научные взгляды на сущность понятия инклюзивного образования, несколько основных теоретических подходов к трактовке этого понятия исследователями, научно-теоретические основы, а также ряд проблем инклюзивного образования..

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, сегрегация, интеграция, включение. исторические этапы, нормативные правовые акты, понятие.

## HISTORICAL-THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF INCLUSIVE EDUCATION

Annotation

The article describes the historical-theoretical foundations of the formation of inclusive education, scientific views on the essence of the concept of inclusive education, several basic theoretical approaches to the interpretation of this concept by researchers, scientific and theoretical foundations, as well as several problems of inclusive education.

**Key words:** inclusive education, children with disabilities, segregation, integration, inclusion. historical stages, regulatory legal documents, concept.

**Kirish.** Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim muassasalarida ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar huquqlarini ta'minlash, ularni umumiy (asosiy) ta'lim muassasalari sharoitida qo'shma o'quv jarayonining ishtirokchilariga aylantirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish"[1] ustuvor vazifalardan etib belgilandi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi "Inklyuziv ta'lim" deb nomlangan bo'lib, ushbu moddada inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ta'lim tizimi, shu jumladan inklyuziv ta'lim sohasidagi ko'plab dolzarb muammolar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida yuz bergan ijtimoiy, huquqiy va ta'limiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, "inklyuziv ta'lim" pedagogik fenomenining paydo bo'lishi, avvalo, jamiyat ongining nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilarga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning taraqqiyot darajasi uning ta'lim oluvchilar, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga qanday munosabatda ekanligi orqali baholanadi. Inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga

muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Tarixiy manbalar shuni tasdiqlaydiki, so'nggi ikki asr davomida fan, madaniyat, tibbiyot va ta'lim sohasidagi ilg'or fikrli mutaxassislarining nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan jamiyatda hukm surgan mafkuraga qarshi uzluksiz kurashi natijasida inklyuziv ta'lim g'oyasi shakllanib bordi. Ushbu jarayon bir necha bosqichni bosib o'tgan: to'liq rad etish va hatto yo'q qilish → segregatsiya → integratsiya → inklyuziya. Ushbu rivojlanish tendensiyasi dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun umumiy xususiyatga ega [3].

XIX asrda sanoat inqilobigacha hukmron bo'lgan mafkura nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyat ierarxiyasining eng quyi qatlamiga mansub shaxslar sifatida qabul qilgan. Bu esa ularning hayotini og'ir sharoitlar, huquqsizlik, jamiyat tomonidan qabul qilinmaslik va ularning farovonligiga xizmat qiluvchi har qanday muqobil yechimlarning yo'qligi bilan belgilab berdi [4].

Ushbu munosabat, birinchi navbatda, tarixiy shakllangan ijtimoiy-madaniy kontekst ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, nogironligi bo'lgan bolalarni faqat ularning nuqsonining kelib chiqish tabiatiga asoslangan holda baholash bilan ifodalardi.

Natijada, jamiyatda bunday bolalarning jamiyatdagi o'rni va maqomi borasida turlicha, ko'pincha qarama-qarshi va paradoksal qarashlar shakllandi. Ba'zi hollarda ular sehr va mo'jizalar bilan bog'liq mistik kuchlarga ega deb qabul

qilingan bo'lsa, boshqa hollarda esa "iblisiy mavjudotlar" sifatida ko'rilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bunday qarashlar nafaqat oddiy fuqarolar, balki shifokorlar, huquqshunoslar va faylasuflar kabi ziyolilar orasida ham keng tarqalgan bo'lgan [5].

Inklyuziv ta'lim shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan eng muhim tarixiy bosqichlardan biri antik davr bo'lib, aynan shu davrda tashqi qiyofasi yoki jismoniy holati boshqalardan farq qiluvchi bolalarga nisbatan uzoq asrlik salbiy munosabatning tamoyillari shakllangan [6].

Antik sivilizatsiyaning jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan umumiy pozitsiyasi qadimgi Sparta, Afina va Rim jamiyatlarida eng yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi o'zaro farqlarga ega bo'lishiga qaramay, mavjud tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, antik davr jamiyatida bunday bolalarga nisbatan ostrakizm (ijtimoiy chetlatish), izolyatsiya va majburiy evtanaziya amalda qo'llanilgan. Ular jamiyat uchun "foydasiz" deb topilib, hayotdan butunlay chiqarib tashlangan [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'rta asrlar davrida nogironligi bo'lgan bolalarga bo'lgan munosabat yanada shafqatsiz shaklda davom etgan. Garchi keyingi 1500 yil ichida turli davlatlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar, yangi mafkuralar va diniy qarashlar shakllangan, ilm-fan rivojlangan bo'lsa-da, nogironligi bo'lgan bolalarning huquqiy maqomi qayta ko'rib chiqilmagan. O'sha davrdagi tarixiy hujjatlar shuni ko'rsatadiki, Yevropa jamiyatlarida bunday bolalar odatda "idiot" (yunoncha "idiotos" – jaholatga berilgan, jamiyat hayotida ishtirok etmaydigan kishi) deb atalar edi. Ushbu atama XVIII asrgacha nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, ularning jamiyatdan butunlay chetlatilishiga, har qanday tibbiy, ijtimoiy va madaniy yordamdan mahrum bo'lishiga sabab bo'lgan [8].

Shu sababli, o'rta asrlar davri nogiron bolalarning ijtimoiy va pedagogik izolyatsiya qilingan davri sifatida tavsiflanadi.

Bir qator davlatlar tomonidan majburiy va bepul boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalari tizimining shakllanishiga turtki bo'ldi. Ushbu jarayon jahon madaniy, ilmiy va siyosiy markazlariga aylangan Avstraliya, Avstriya, Angliya, Germaniya, Daniya, Italiya, Niderlandiya, AQSh, Fransiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda kuzatildi. Bu esa maxsus ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minoti, ta'lim maqsadlari va uslublarini ishlab chiqish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, ayrim pedagogik qarashlarda nogironligi bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitish g'oyasi ham paydo bo'ldi.

Bu o'zgarishlar natijasida maxsus maktablar va maxsus pedagogika fani alohida yo'nalish sifatida shakllandi va nogironligi bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini o'rganishga yo'naltirildi. Maxsus maktablar tizimining kengayishi turli patologiyaga ega bo'lgan bolalar rivojlanishini chuqur tadqiq qilishga imkon yaratgan bo'lsa-da, ular hanuz ijtimoiy va ta'limiy izolyatsiyaga duch kelishdi [9].

Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, "inklyuziv ta'lim" pedagogik fenomenining paydo bo'lishi, avvalo, jamiyat ongining nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liqdir.

1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar huquqlarining tengligini ta'minlash tashabbuskori sifatida chiqdi. Bu davrda jahon miqyosida iqtisodiy yuksalish va liberal-demokratik islohotlar asosida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli va ochiq ta'lim olish huquqlari muammolari davlatlar va

hukumatlar tomonidan keng muhokama qilina boshlandi. Shu sababli, chet el mamlakatlarining maxsus ta'lim tizimlarini rivojlantirishga oid asosiy tendensiyalar quyidagilar bo'ldi: imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga doir qonunchilik bazasini takomillashtirish; jamiyatda yangi mafkuraning shakllanishi, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy integratsiyaga yo'naltirish; milliy ta'lim tizimlarini takomillashtirish.

**Tahlil va natijalar.** Shuningdek, YUNESKONing "Inklyuziv ta'lim: kelajakka yo'l" mavzusidagi xalqaro konferensiyasining 48-sessiyasida "inklyuziya ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida" ustuvorlik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, 1990 yilda "Ta'lim barcha uchun" harakati Tailandning Jomtien shahrida bo'lib o'tgan "Ta'lim barcha uchun" Butunjahon konferensiyasida "barcha bolalar, yoshlar va kattalarga ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkonini berish" maqsad qilgan. Mazkur hujjatlar BMT tomonidan inson huquqlarini himoya qilish va ta'lim sohasida teng imkoniyatlar yaratish borasidagi xalqaro huquqiy me'yorlarni shakllantirdi. Ularning qabul qilinishi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inklyuziv ta'lim tizimining huquqiy asoslarini yaratishda muhim qadam bo'ldi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning taraqqiyot darajasi uning bolalar, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga qanday munosabatda ekanligi orqali baholanadi.

Inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy qarashlar turlicha bo'lib, uning mazmuni va ta'rifi nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu konsepsiyani talqin qilishda bir necha asosiy nazariy yondashuv shakllangan. Inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy- jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi [10].

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir [11].

Inklyuziv ta'lim – ta'lim olish uchun maxsus sharoit yaratish jarayoni. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar inklyuziya tushunchasini maxsus pedagogik xizmatlar va yordam ko'rsatish tizimi bilan bog'liq jarayon sifatida izohlashadi.

"Inklyuziya – bu nogiron bolalarni o'z yashash joylarida joylashgan umumta'lim maktablarida ta'lim olish jarayoni bo'lib, ularga o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus pedagogik yordam ko'rsatiladi".

Inklyuziya – ijtimoiy va pedagogik muloqotni rivojlantirish vositasi. Ba'zi tadqiqotchilar inklyuziv ta'limning eng muhim jihati sifatida DOVZ va sog'lom o'quvchilar hamda pedagoglar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirni rivojlantirishni ko'rsatadilar.

Inklyuziya – ijtimoiy-falsafiy tamoyil sifatida. "Inklyuziya – bu jamiyat va ta'lim tizimining har bir bolaning o'ziga xosligini tan olishga asoslangan falsafiy konsepsiyadir".

Amerikalik tadqiqotchilarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar umumiy ta'lim muhitida o'z jamiyatiga moslashish va muloqot qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Ular tengdoshlari bilan muntazam o'zaro aloqa qilish orqali ijtimoiy o'zini anglash jarayonini chuqurlashtiradi hamda jamiyatga tegishlilik hissini shakllantiradi. Inklyuziv ta'lim muhiti esa ijtimoiy moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlab, ularning shaxsiy rivojlanishiga, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga hamda jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishiga sharoit yaratadi.

"Inklyuziyani umumiy ta'lim tizimiga qo'shimcha element sifatida emas, balki ta'lim jarayonining ajralmas qismi

sifatida ko'rish lozim. Aks holda, inklyuziv ta'limni samarali joriy etish imkonsiz bo'ladi"[12].

L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish, ya'ni maxsus yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan. L.S.Vigotskiy maxsus ta'lim va umumiy ta'limning uyg'unlashuvi uchun shart-sharoitlar yaratilish hamda maktablarda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish lozimligini ta'kidlab o'tib, har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi»[13] deb ta'kidlaydilar. Xorijlik olimlardan M.Budoff, D.A.Cole inklyuziv ta'lim har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etiladigan va imkoniyati cheklangan o'quvchilarni eng samarali ijtimoiylashuvini ta'minlaydigan o'qitish shakli deb nomlaganlar[14].

Nemis olimi A. Sander inklyuziv pedagogikani integratsion pedagogikaning keyingi bosqichi deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, inklyuziya asosan integratsiya uchun yetarli huquqiy, ilmiy va ijtimoiy asosga ega bo'lgan davlatlarda rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim nafaqat pedagogik fenomen, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy-madaniy qadriyatlari tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron ta'lim oluvchilar uchun teng

imkoniyatlar yaratish, balki barcha ta'lim oluvchilarni bir xil sharoitda ta'lim olishga yo'naltirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida rivojlanmoqda. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati nafaqat pedagogik jarayonlarga, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va psixologik tayyorgarligiga ham bog'liqdir[15]. U to'liq samara berishi va keng qabul qilinishi uchun jamiyatda inklyuziya tamoyillarini chuqur shakllantirish zarur. Buning uchun quyidagi asosiy shartlar bajarilishi lozim:

Inklyuziv qadriyatlarni bolalikdan shakllantirish – bolalarning turli xil ehtiyojlarga ega insonlar bilan teng huquqli muhitda o'sishi va o'zaro hurmatni shakllantirish orqali inklyuziv madaniyatga asos yaratish;

Nogiron va maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni ijtimoiy qabul qilish darajasini oshirish – jamiyatda to'sqinlik qiluvchi stereotiplarni yo'qotish, inklyuziv ta'limning afzalliklarini keng targ'ib qilish va barcha qatlamlarda ijtimoiy ongini rivojlantirish;

Pedagoglarning inklyuziv madaniyatga moslashuvi va metodik tayyorgarligini takomillashtirish – o'qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish, inklyuziv yondashuvni o'quv jarayoniga joriy qilish va ularni zamonaviy metodika va psixologik qo'llab-quvvatlash texnologiyalari bilan ta'minlashdan iborat.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori: <https://lex.uz/docs/5044711>.
2. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. Новая философская энциклопедия в 4 т. - М.: Мысль, 2001, - Т.4. С. 18-20.
4. Комарова М.Ю. Развитие творческого потенциала будущих учителей во внеаудиторной деятельности Автореф, дисс.канд. пед. наук. Иркутск, 2002-22с.
5. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. - М.: ИЧП.: Магистр, 1997.- 56 с.
6. Емельянов Ю.Н. Теория формирования и практика совершенствования коммуникативной компетентности: Дис. д-ра психол. наук: 19.00.05-Л., 1990.-68 с.
7. Скок Г.Б. Основы технологии и коррекции педагогической деятельности преподавателя: Автореф. дис. ...докт.пед.наук. - Л., 1988. - 32 с
8. Сироткин Л.Ю., Егерев С.Ф. Нравственный выбор и его воспитание: Науч.-метод. пособие / Казан, гос. пед. ун-т, Каз. гос. акад. культуры и искусства. - Казань, 1995. - 79 с.
9. Брушлинский А.В. Психология мышления и проблемное обучение. М.: Знание, 1983.-96 с.
10. Sultanmurodovna, K. N. (2025). Preparing Educators for an Inclusive Education Environment. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 38, 168-171.
11. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: "Fan", 2008. –B.47.
12. Матюшкин А.М. Загадки одаренности: проблемы практической диагностики. - М.: Шк.-Пресс,1993. - 127 с
13. Выгодский Л.С. Педагогическая психология. –М. : "Педагогика.1991. С 231.
14. M.Budoff, D.A.Cole, [and others] Bilateral cochlear implants in children: localization acuity measured with minimum audible angle // Ear & Hearing. 2006.
15. Sultanmurodovna, X. N. (2023). Technology for the development of professional competence based on a creative approach. Confrencea, 3(03), 28-31.